

NEED TO PREPARE STUDENTS FOR MANAGEMENT ACTIVITY IN HIGHER EDUCATION

Orinova Feruza Uljayevna,
professor of FarDU
Karimova Gulzoda Maruffjon's kizi,
graduate student of FarDU

Abstract: The socio-economic changes taking place in our country are aimed at the modernization of the education system, including improving the quality of education. The problem of implementing the quality of education is one of the main tasks for all types of educational institutions. One of the priority directions in this regard is to increase the level of training of the graduates of pedagogical higher educational institutions in organizational and management activities.

Key words: modernization, organizational-management activity, competence, education, management, leadership, secrets of art.

OLIY TA'LIMDA TALABALARINI BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH ZARURIYATI

O'rinova Feruza Uljayevna,
FarDU professori
Karimova Gulzoda Maruffjon qizi,
FarDU magistranti

Annotatsiya: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, jumladan, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan. Ta'lim sifatini amalga oshirish muammosi ta'lim muassasasining barcha turlari uchun asosiy vazifalardan biridir. Bu boradagi ustuvor yo'nalishlardan biri pedagogika oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining tashkiliy-boshqaruv faoliyatiga qobiliyati va kompetentlik tayyorgarligi darajasini oshirishdan iborat.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, tashkiliy-boshqaruv faoliyat, kompetentlik, ta'lim, boshqaruvchilik, rahbarlik, san'ati sirlari.

Mustaqillik munosabati bilan mamlakatimizda qilinayotgan islohatlar ta'lim tarbiya jarayonini sifat jihatidan tamomila yangi darajaga ko'tarishni taqozo etmoqda.

Shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohatining asosiy omillaridan biri ekanligi tufayli ham, jamiyatimiz ijtimoiy hayotining har bir sohasida ta'lim tarbiya ishlariga e'tiborni kuchaytirish, fuqarolarning tarbiyasi saviyasini yangi darajaga ko'tarish, yosh avlodni har tomonlama etuk shaxs sifatida tarbiyalash zamon talabi bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston respublikasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilinishi tufayli qo'yilayotgan zamon talablarini amalga oshirish jarayonini jadallik bilan borishi, ko'p jihatdan, o'quv muassasalari rahbarlarining ushbu jarayonni yanada samarali bo'lishiga qo'shadigan hissalar va rahbarlik faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishlariga bog'liqdir.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning eng muhim yo'nalishi bu tizimni boshqarish modelini o'zgartirishdir. Bevosita maqsad - ta'lim siyosatining barcha sub'ektlarining vakolatlari, funktsiyalari va majburiyatlari aniq taqsimlangan va muvofiqlashtirilgan holda optimal boshqaruv modelini ishlab chiqishdan iborat. Talabalarni boshqaruvchilik faoliyatiga tayyorlash ularni o'z faoliyatiga qiziqitirish, tadbirkorlikka, mehnatga ijodiy yondashish, o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish, sohalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga ko'maklashish, yangilikka va ijodkorlikka chorlash, insonlarning faoliyatini boshqarish demakdir. Shaxsning individual faoliyatida inson o'zini-o'zi boshqaradi va ko'zlangan natijalarga erishadi, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish uchun o'zaro ta'sir yoki shaxsning boshqa shaxslarga nisbatan ta'siri zarur bo'lib, bu o'z mohiyatiga ko'ra boshqaruvni, ya'ni ma'lum bir maqsadga erishish yo'nalishida insonlar faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Boshqaruv insonlarning barcha faoliyatlariga tegishli bo'lgan jarayon bo'lib, hayotiy ehtiyojlarni qondirishda, ko'zlangan maqsadlarga erishishda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni ifodalaydi. Shunday ekan, boshqaruvni, ya'ni boshqaruv faoliyatini tashkil etish zaruriyatini belgilovchi bosh mezon bu inson oldiga yoki muassasa oldiga qo'yilgan maqsad bo'lib, unga erishish uchun vazifalar belgilash, tashkiletiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'lyo'riqlarini tanlash, vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra bajaruvchilarni tanlash va bajariladigan vazifalarni taqsimlash, belgilangan maqsadga erishish uchun tashkil etiladigan jarayon ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish zarur hisoblanadi. Ta'lim muassasasini rivojlantirish, boshqaruv jarayonini takomillashtirish va ta'lim samaradorligini oshirishda bioritmlar nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bioritmlar nazariyasi - shundan iboratki, bunda ixtiyoriy ta'lim muassasasi sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglar va boshqa xodimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va sub'ekt bilan ob'ektning o'zaro ta'sirlari bilan bir qatorda tashqi muhit ta'siri mavjud bo'ladi. Pedagog xodimlarga bo'lgan tashqi muhitning ta'siri ularning o'z faoliyatiga nisbatan moyilligini o'zgartiradi. Ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish, ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy talablarga mos, ilmiy asosda tashkil etish, pedagogik xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda umumiy manfaatlarni ko'zlovchi natijalarga erishish uchun qabul qilgan qarori, uning ijrosi, o'z hatti-harakati va faoliyati uchun javobgarlikning rahbarlar tomonidan his qilinishidir. Boshqaruv madaniyatining dolzarbligi boshqaruv tizimida ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarning vujudga kelishi sifatida va ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelishi bilan belgilanadi. Shunday ekan, maktabda boshqaruv faoliyatini tashkil etuvchi rahbarlar nafaqat pedagogik tajribaga, balki boshqaruv funktsiyalari va ularning vazifalari, boshqaruv metodlari va ulardan foydalanish, boshqaruv algoritmi va uning mohiyati, boshqaruv qarorlari va ularni qabul qilish yo'llari hamda rahbarlik uslublari va ularni qo'llash kabi qator tushunchalarga ham ega bo'lmog'i lozim.

Ko'rinib turibdiki, ta'lim muassasalarini boshqarishda pedagogik menejment fanining o'rni beqiyos bo'lib, u rahbarlarga menejmentning asosiy tushunchalari va ularning vazifalarini, boshqaruvning maqsadi va vazifalari, zamonaviy maktabning tashkiliy tuzilishi, strategik boshqaruv va rejalashtirish qoidalarini, zamonaviy boshqaruvning usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rgatadi. Jamiyatning ma'naviy hayotini boshqarish oldiga qo'yilgan maqsad esa ilm-ma'rifatni, madaniyatni, har tomonlama kamol topgan yuksak intellektual, yuksak darajadagi pok va axloqli kishini tarbiyalab etishtirishdan iboratdir. Har qanday miqyosdagi

bevosita ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat idora qiluvchiga ma'lum darajada muhtojdir. Idora qiluvchi individual ishlarni bir-biriga muvofiqlashtiradi va ishlab chiqarish organizmining mustaqil organlari harakatidan farq qilib, butun organizm harakatidan kelib chiqadigan umumiy vazifalarni bajaradi. Yakka skripkachi o'zini o'zi idora qiladi, lekin orkestr esa dirijyorga muhtojdir. Demak, to'g'ri boshqaruvning muhim sharti boshqaruvchi, rahbarning bo'lishidir. Boshqarish faqat ishlab chiqarishgagina xos bo'lgan jarayon emas. Balki ijtimoiy sohalar, shuningdek, ta'lim tizimida ham boshqarishni to'g'ri tashkil etilishi juda muhim. Hozirgi paytda yagona pedagogik jarayonni boshqarishga ilmiy yondashish harakati kuchaydi. Bu esa intellektual salohiyati yuqori kadrlarni shakllantirish uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Avvalo, boshqarishning ijtimoiy mohiyatini anglab olaylik. Boshqarish ma'lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir. Rahbarlik – turli xil vazifalarning to'plami yoki amal kursidan iborat emas, balki kasbdir. Rahbarlik insondan zarur xarakter, bilim, ko'nikma, malaka, mahorat, kasbiy nazokat, tajriba, qobiliyat va o'ziga xos xususiyat talab etadi.

Boshqaruv bilimdonlik, omilkorlik, ijodkorlik, talabchanlik, ayni paytda mehribonlik va izchillik bilan olib borilishi zarur. Bugungi boshqaruv uslubi noan'anaviy muammolarga eng maqbul yechimlar topish, dadil harakatlar, tashabbuskorlik, ayrim paytda qat'iyatlilikka asoslanadi. Shu bilan birga, boshqaruv ishi ilmiy-uslubiy asoslangan faoliyatga tayanib, yetti o'lchab bir kesilgan, jiddiy sinovdan o'tkazilgan hayotiy xulosalar asosiga qurilishi zarur. Aks holda ta'lim-tarbiyadek o'ta nozik jarayondagi o'zboshimchalik jamiyat uchun qimmatga tushishi mumkin. Rahbarlik faoliyati barcha davrlarda muhim va o'ta murakkab muammolardan bo'lib kelgan.

Boshqaruv – bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir.

Hozirgi zamon amaliyotida boshqaruv insonlarning hatti-harakatini tartibga keltirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat sifatida izohlanadi.

"Menejment" so'zi "boshqaruv" tushunchasidan farqli ravishda boshqaruv faoliyatini tashkil etish degan ma'noni anglatib, u fan sifatida boshqarishning sir-asrorlarini o'rganadi va tahlil qiladi.

"Boshqaruv" atamasi nisbatan kengroq ma'noni anglatadi, mazkur tushuncha orqali ma'lum bir shaxs tomonidan biron-bir obyektning boshqarilishini, ya'ni nafaqat insonlarni, balki mashina, dastgoh yoki texnologik ko'rilmalarni boshqarishni, shuningdek, mazko'r boshqaruvchilarni ham boshqarishni tushunish mumkin.

Boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri fransuz olimi A.Fayol boshqarishni:

- kelajakni qo'ruvchi;
- faoliyatni tashkillashtiruvchi;
- tashkilotni idora qiluvchi;
- faoliyat to'rlarini muvofiqlashtiruvchi;
- qaror va bo'yruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi qo'rol deb ataydi.

Ikkinchi yo'nalish vakillari boshqaruvni bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruhga "ta'siri" deb hisoblaydilar. Bo'yo'nalish tarafdorlari boshqaruv biror bir yo'galishga yo'naltirilgan ta'sir etish bo'lib, subyektning obyektga ta'siri natijasida obyektning o'zgarishi, deb ta'riflashadi.

Uchinchi yo'nalishga ko'ra, boshqaruv - bo' subyektlar ichidagi o'zaro ta'sir, ya'ni to'g'ri va teskari ta'sirlarning o'zlo'qsizligi, bir-biriga ta'sir etuvchi subyektlar ishining organik bog'liqligi degan qarashlar mavjud. S.N.Tidor boshqaruv ma'nosini quyidagicha tavsiflaydi:

- maqsad yo'nalishida obyektни muvofiqlashtirish;
- maqsadga erishish uchun obyektga ta'sir etish;
- maqsadga erishish yo'nalishida tizimni tashkil etuvchisiga ta'sir etishni vertikal muvofiqlashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. .A. Djurayev R.X., Turgunov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. – T., Fan, 2006.
2. Murakayev I.U., Saifnazarov I.S. Menejment asoslari. – T., O'zbekiston, 2001.
3. Urinova F. U. Steam implementation in the organization of activities of the development centers in preschool education //European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 45-49.
4. O'ljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari //Pedagog. – 2024. – T. 7. – №. 5. – C. 827-831.
5. Oljayevna O. F. Et al. Tarbiyachi pedagoglarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish //Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 410-415.
6. Oljayevna O. F. Et al. Bolalarda intellektual qobiliyatni rivojlantirish xususiyatlari //Samarali ta'lim va barqaror innovatsiyalar jurnali. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 404-409.
7. O'rinova F., Bozorboyeva O. Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektining rivojlanishida nutqning o'rni //Development and innovations in science. – 2024. – T. 3. – №. 2. – C. 20-24.
8. Uljayevna O'. R. F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – c. 88-91.
9. Uljayevna O'. R. F., Saydamatovna S. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B3. – C. 349-355.
10. Uljayevna O. F. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini takomillashtirishda ilmiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 660-667.
6. Uljayevna u. F. Et al. Creolized texts, their features and possibilities //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 668-673.
7. Uljayevna O. F. et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – C. 654-659.
7. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a

psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – c. 47-51. 13. Uljaevna U. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 4. – C. 444-448.

8. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o'quv-uslubiy ta'minotI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B3. – C. 349-355.

List of used literature:

.A. Djurayev R.H., Turgunov S.T. The main concepts of management in the management of general secondary educational institutions. - T., Science, 2006.

Murakayev I.U., Saifnazarov I.S. Fundamentals of management. - T., Uzbekistan, 2001.

Urinova F.U. Steam implementation in the organization of activities of development centers in preschool education //European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices. - 2024. - T. 2. – no. 5. - S. 45-49.

O'ljayevna O. F. Et al. Peculiarities of preschool educational organization management //Pedagog. - 2024. - T. 7. – no. 5. - S. 827-831.

Oljayevna O. F. Et al. Development of creative qualities in pedagogues // Journal of effective education and sustainable innovations. - 2024. - T. 2. – no. 4. – S. 410-415.

Oljayevna O. F. Et al. Features of development of intellectual ability in children // Journal of effective education and sustainable innovations. - 2024. - T. 2. – no. 4. – S. 404-409.

Orinova F., Bozorboyeva O. The role of speech in the development of the intelligence of preschool children //Development and innovations in science. - 2024. - T. 3. – no. 2. - S. 20-24.

Uljayevna O'. R. F. Features of improving the professional pedagogical competence of the educator of the preschool education organization //science and innovation. - 2022. - t. 1. – no. B2. - p. 88-91.

Uljayevna O'. R. F., Saydamatovna S. Z. Educational and methodological support for the formation of creative activity of preschool children //Science and innovation. - 2022. - T. 1. – no. B3. - S. 349-355.

Uljayevna O. F. Methodical system of preparation for scientific activity in improving the professional potential of future educators // Online scientific journal of sustainability and leading research. - 2022. - p. 660-667.

6. Uljayevna u. F. et al. Creolized texts, their features and possibilities //Online scientific journal of sustainability and leading research. - 2022. - p. 668-673.

7. Uljayevna O. F. et al. Principles of preparing students of the preparatory group in pre-school education organizations for school // Online scientific journal of sustainability and leading research. - 2022. - S. 654-659.

7. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem // Online scientific journal of sustainability and leading research. - 2022. - p. 47-51. 13. Uljaevna U. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. - 2022. - T. 4. – S. 444-448.

8. Ulzhayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. Educational and methodological support for the formation of creative activity of preschool children //Science and innovation. - 2022. - T. 1. – no. B3. - S. 349-355.